

Yulduz

...ko'z yoshlarim yig'ilib katta va yorqin yulduzga aylangandi.

Tun. Jim jitlik. Osmon juda chiroyli. U qorong'u ammo oppoq bulutlar uning qorong'uligini berkitardilar. Bulutlar orasidan kichkinagina yulduzlar, bor kuchi bilan nur sochishga urinar, shu sababli ham ko'zga g'ira-shira yulduzlar tashlanib qolardi. Hovlidagi ochiq ayvonda ushbu manzarani kuzatarkanman meni allaqanday ajoyib hislar o'rab olganini sezardim. Yomg'ir shitiray boshladi. U yuzlarimni qitiqlab meni erkalayotgandek edi go'yo, beihtiyor jilmaydim. Ko'cha eshigi sekingina tashqaridan kalit bilan ochilgani hayollarimni to'zg'itib yubordi. Akam ishdan kelgandi. Biz oilada uch kishimiz. Men akam va oyim. Otam haqida esa gapirishni xohlamayman u bizning hayotimizda yo'q. Akamning yoshi 19 da. Meniki esa 8da. Oyim juda yaxshi ayol. Akam meni yaxshi ko'radi. Bugun akam negadir tushkun tarzda ishdan keldi. Ha charchagandir-da. Indamay ayvon chetiga o'tirdi. Odatda kayfiyati yo'q bo'lsa hech kimga gapirmaydi menga o'xshab. Sekin akamning yoniga surildim.

--aka

--...

--hooy

--...

--mayli – deb teskari o'girilib boshimni egib o'tirib oldim. Akam esa hamon ko'zini osmondan uzmasdi. Vanihojat

-- Sokina

-- Ha

--Qo'rqyapman

--Nimadan?

--Osmonda yulduzlar qolmapti qara

--Akajon xohlasangiz hozir yulduzlarni paydo qilaman—deb u tomonga jilmaygancha o'girildim.

-- Qani ko'raychi—deb akam menga qarab jilmaydi. Jilmaygani sababmi ko'nglim ancha yorishdi. Nima bo'lganda ham akam-da u his qilgan narsani men ham ko'nglimdan o'tkazaman. Men yig'lay boshladim. Ko'zimdan dumalab tushayotgan ko'z yoshlarimga akam qarab tura olmadi va ko'zlarini olib qochdi

--Nega yig'layabsan?---ovozida qaltiroq bor edi.

--Aka bu yig'i emas bu yulduzlar qarang.

--Unday bo'lsa menga yulduzlarning keragi yo'q. Men yulduzlarni yomon ko'raman bas qil bo'ldi yig'lama. Men seni juda yaxshi ko'raman. Seni va oyimni hech qachon tashlab ketmayman. Doim sizlarni himoya qilaman – deya meni quchdi va o'zi ham yig'lay boshladi. Bunday vaziyat otamizni sog'inganimizda ko'p bo'lardi. U bizga mehr bermagan, biz esa ota mehrini his qilishni juda xohlagandik. Afsuski bu hech qachon amalga oshmas edi.

--Aka men katta bo'lsam qonun yaratuvchi bo'lib ishlayman. Birinchi bo'lib ajrashgan oilalarni farzandini yetim qilgani uchun jinoiy javobgarlikka tortuvchi qonun yarataman aka. Ana ushanda barcha bolalarning otasi ham onasi ham bo'ladi. Ana ushanda hech ham aka singillar yig'lamaydi.----mana shu suxbat bizning oxirgi suxbatimiz edi. Akam ertasi kuni uyg'onmadi. U meni gaplarimni eshitgancha jilmayib uyquga ketdi va ertalab qayta uyg'onmadi.(otam juda ko'p ichkilik ichardi. U uydagi barcha narsalarni sotib yuborgan va pullarni ichkilikka sarflagandi. Puli qolmagach esa akamning buyragini 17 yoshligida sotib yubordi va kasalmand akam oyim va meni tashlab qochib ketgandi.) Akam bergan va'dasini buzdi va bizni tashlab ketdi. Hozirda yoshim 17da mana bugun ham yomg'ir yog'yabti. Bulutlar orasidan birgina yorqin yulduz charaqlab turibdi. Mening ko'z yoshlarim yig'ilib katta va yorqin yulduzga aylangandi. Bu ana o'sha yulduz.

Robiya